


14. Sonlarni ayirish (30 – 7)

Yondosh mavzu:
Taqvim

Xona birliklari,
o'nlukdan ayirish.




- O'zingizni tekshirib ko'ring.
30-sentabr haftaning qaysi kuni?
Undan bir hafta oldin qaysi sana?
Bir haftada necha kun bor?
Chorshanba kuniga qanday sanalar
to'g'ri keladi?



- Misollarni namunaga qarab yeching.

Namuna:

$$30 - 7 = 20 + (10 - 7) = 20 + 3 = 23$$



$20 - 7$	$50 - 6$
$60 - 1$	$70 - 9$
$30 - 9$	$80 - 3$
$90 - 5$	$40 - 2$



- Faqat yaxlit sondan birliklarni ayirishga
doir misollarni yeching. Javoblarni o'sish
tartibida qo'yib chiqing.
Yashiringan so'zni toping.

G'	$70 - 8$
S	$34 - 4$
N	$50 - 6$
A	$40 - 3$
Ch	$30 - 3$
I	$90 - 5$




- Jadval yordamida masala tuzing. Daftaringizga uning
qisqacha sharti va yechimini yozing.

Bor edi	Sotildi	Qoldi
$(40 + 50)$ kg	8 kg	? kg

14. Sonlarni ayirish (30 – 7)



5. Har yili bahorgi tengkunlik 21-mart kuni bo'ladi, yilning eng uzun kuni 22-iyun kuni bo'ladi. Bahorgi tengkunlikdan yilning eng uzun kunigacha necha kun bor? Sonlar nuridan foydalanib ifoda tuzing. Uning qiymatini hisoblang.



6. a) 8 sonining o'ng tomoniga nol soni qo'shib qo'yildi. 8 soni qanchaga ortdi?
b) 70 sonidagi nol o'chirib qo'yildi. 70 soni qanchaga kamaydi?



7. Taqqoslang.

$$50 - 5 \quad \square \quad 40 + 5$$

$$30 - 8 \quad \square \quad 22 + 0$$

$$18 + 2 \quad \square \quad 20 - 2$$

$$40 - 6 \quad \square \quad 37 + 1$$



8. Qishning 90 kunidan faqat 5 kuni quyoshli bo'ldi. Quyoshli kunlar bulutli kunlardan qancha kam bo'lgan?



9. Tenglamalarni yeching.

$$m + 4 = 37 + 3$$

$$x + 5 + 2 = 30$$

$$3 + z + 4 = 70$$